

**QISHLOQ XO'JALIGIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH  
IMKONIYATLARI**

**Farangiz Abduxaliqova**

**Feruz O'roqov**

*magistrantlar*

**Rizo Kudratov**

*Ilmiy rahbar, iqtisodiyot fanlari nomzodi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti*

**Annotatsiya:** *Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligi haqida masala ko'rilinganda, "Samara" va "Samaradorlik" - tushunchalarining bir xil emasligini ko'zda tutish kerak. "Samara" atamasini qandaydir jarayonning natijasini bildiradi. Umumiyo ko'rinishda har qanday ishlab chiqarishning samarasi shaklida uning vazifasi – ishlab chiqarishning maqsadini amalga oshiruvchi pirovard mahsulot yuzaga chiqadi. Bir tomondan, u o'z tarkibiga ma'lum davrdagi harakatdagi ishlab chiqarish resurslarining moddiy natijasi yig'indisini oladi, boshqa tomondan – ishlab chiqarishning pirovard maqsadi faqat bevosita ishlab chiqarilgan moddiy boyliklarning hajmida mujassamlashgan bo'ladi.*

*Maqolada qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligining hozirgi holati o'rganilib, tahlil qilingan va uni oshirish imkoniyatlari ko'rsatilgan.*

**Kalit so'zlar:** *samaradorlik, qishloq xo'jaligi samaradorligi, o'simlikchilik tarmog'i, chorvachilik tarmog'i.*

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasiga muvofiq, "qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravarga oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish" ustuvor maqsad sifatida belgilandi.

Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish bo'yicha zamonaviy ilm va innovatsiyalarga asoslangan resurstejamkor texnologiya va agrotexnik tadbirlarni joriy etilishi, qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishni moliyalashtirish tizimini tubdan isloh qilinishi hisobiga qishloq xo'jaligi yalpi ishlab chiqarishining yillik barqaror o'sish sur'atlari qayd etilib, jumladan, 2023-yilda 8,4 million tonna don ekinlari, 3 mln. 713 ming tonna paxta xomashyosi, 11,6 million tonna sabzavot, 3,6 million tonna kartoshka, 2,6 million tonna poliz, 3,1 million tonna meva, 1,7 million tonna uzum, 2,8 million tonna go'sht (tirik vaznda), 12 million tonna sut, 200 ming tonna baliq, 8,5 milliard dona tuxum yetishtirildi. 2023-yilda chorvachilik tarmoqlarida qiymati 7,4 trln. so'mlik 2145 ta loyihibar ishga tushirilib, 170 ming ta ish o'rinnari yaratildi. Yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotidagi chorvachilik mahsulotlarining hajmi 202 trln. (ulushi 49,9%) so'mni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 103,7 foiz o'sishga erishildi (1-jadval).

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH**  
**VOLUME-7 ISSUE-4 (30- April)**

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 2023-yilda 63,1 foizini dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 29,8 foizi fermer xo'jaliklariga va 7,1 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelgan. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda dehqonchilik mahsulotlari ulushi 50,1 foizni va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 49,9 foizni tashkil qilgan.

**1-jadval**

Respublika bo'yicha qishloq xo'jalik mahsulotlari dinamikasi to'g'risida ma'lumot<sup>23</sup>

Nº	Mahsulot turi	O'lchov	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2023 yilda yilga tan ishi, +;-
1	Don va dukkakli don ekinlari - jami	ming tonna	7 634,6	7 990,5	8 426,6	792,0
2	Texnik ekinlar (paxta xom-ashyosi)	ming tonna	3 372,9	3 500,7	3 710,3	337,4
3	Kartoshka	ming tonna	3 285,6	3 443,2	3 574,1	288,5
4	Sabzavotlar - jami	ming tonna	10 850,2	11 162,9	11	703,5
5	Oziqbop poliz	ming tonna	2 285,3	2 420,7	2 553,5	268,2
6	Mevalar va rezavorlar - jami	ming tonna	2 852,6	2 999,3	3 121,7	269,1
7	Uzum	ming tonna	1 695,3	1 760,6	1 737,6	42,3
8	So'yish uchun yetishtirilgan mollar randalar - jami (tirik vaznda)	ming tonna	2 635,1	2 725,9	2 833,3	198,2
9	Sut - jami	ming tonna	11 274,2	11 627,2	11	694,5
10	Olingan tuxum - jami	mln. dona	7 788,4	8 129,2	8 487,5	699,1
11	Asal	tonna	14 066,9	14 700,4	15	1 553,7
12	Qirqib olingan jun	tonna	36 345	37 307	38 639	2 294,0
13	Olingan qorako'l terilar	ming dona	1 252,4	1 287,6	1 321,1	68,7
14	Pilla	tonna	22 769,9	24 300,2	25	3 115,9

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligi umumiy ko'rinishda ishlab chiqarishning natijasi, jonli va buyumlashgan mehnat xarajatlari o'rtasidagi nisbat bilan ifodalanadi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi iqtisodiy samaradorligini oshirishning obyektiv zarurligi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichidagi bir qator xususiyatlari va doimiy harakatdagi omillarning yig'indisiga bog'liq.

"Samaradorlik....ma'lum bir davr mobaynida yaratilgan pirovard natija bilan mahsulot birligi ishlab chiqarishga sarflangan moddiy (amortizatsiya bilan birgalikda) va mehnat resurslari xarajatlarini nisbati tushuniladi.."

"Iqtisodiy samaradorlik ... ishlab chiqarish jarayonida qo'llanilgan kamyob resurslar miqdori bilan ushbu jarayon pirovard natijasida ishlab chiqilgan qandaydir iste'mol mahsuloti miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Berilgan hajmda resurs

<sup>23</sup> <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2>

hisobiga olingan mahsulot miqdori qanchalik ko'p bo'lsa, samaradorlik shunchalik yuqori bo'ladi, va aksincha."

"Ishlab chiqarish samaradorligi bu ma'lum bir mutanosiblikdagi tovar va xizmatlar miqdorini eng kam xarajat bilan ishlab chiqarishdir.... Resurslarni taqsimlashning samaradorligi esa, aksincha jamiyatning tovar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini to'laroq qondirilishini ifodalaydi"<sup>24</sup>.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha yaqin yillarda quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

- qishloq xo'jaligi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish maqsadida qishloq va suv xo'jaliklari vazirliliklari qaytadan tashkil etilib, vazirliklarning asosiy vazifalari va faoliyat yo'naliishlari belgilab berildi;
- qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi qabul qilindi;
- paxta va g'allani yetishtirish, xarid qilish va sotishga bozor tamoyillarini joriy etish orqali davlat monopoliyasiga barham berildi;
- yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish choratadbirlari belgilandi.

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda quyidagi ustuvor vazifalar belgilab berilgan:

- qulay agrobiznes muhiti va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish;
- sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish;
- zaruriy qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ekishni rag'batlantirish orqali oziq-ovqat xavfsizligi barqarorligini ta'minlash;
- tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish;
- xo'jalik yuritishning zamonaviy shakllarini joriy etish va rivojlantirish;
- import qilinadigan mahsulot hajmini bosqichma-bosqich qisqartirish;
- tarmoq dasturlarini ishlab chiqish orqali xarajatlar samaradorligini oshirish va mahsulot tannarxini pasaytirish orqali raqobatbardoshligini ta'minlash;
- ilm-fan, ta'lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish;
- tarmoq statistikasining shaffof tizimini yaratish.

Xulosa qilib aytganda, bugun mamlakat aholisining qariyb 50 foizi yashayotgan hududlarda, iqtisodiyotning to'rtdan bir qismini tashkil etayotgan va qariyb 3,5 mln. kishi band bo'lib turgan mazkur sohada belgilangan vazifalarni amalga oshirilishi iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish, mamlakatimiz aholisining farovonligini yanada oshirish hamda barqaror iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashga olib keladi.

<sup>24</sup> Campbell R. McConnell, Stanley L. Brue. Microeconomics-Principles, Problems, and Policies. -15<sup>th</sup> ed. New York, NY, USA: McGraw-Hill/Irwin. 2002.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-fevraldagi "2022—2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-27-son Farmoni.// lex.uz
2. O'zbekiston qishloq xo'jaligining yillik hisoboti: Erishilgan natijalar, tahlillar va tendensiyalar. 2023-yil. <https://www.agro.uz/charts/>
3. Alikulov, A. I., & Abdushukurov, K. B. (2023). Improving the analysis of financial results in agroclusters. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(9), 310-316.
4. Alikulov, A., & Abduraxmonov, F. (2023). Qishloq xo'jalik korxonalarida yakuniy moliyaviy natijalar hisobini takomillashtirish. Academic research in educational sciences, 4(SamTSAU Conference 1), 174-181.
5. Ismatovich, A. A. (2023). THEORETICAL BASIS OF ORGANIZING THE ACCOUNT OF COMMODITY MATERIAL ASSETS IN AGROCLUSTERS ON THE BASIS OF INTERNATIONAL STANDARDS. MASTERS, 1(1), 132-137.
6. Jo'raeva, D. O., & Abdushukurov, X. B. (2023). UZUMCHILIK PLANTATSIYALARINI BARPO ETISH XARAJATLARI HISOBINI TASHKILIY-USLUBIY ASOSLARI. The Journal of Economics, Finance and Innovation, 690-699.
7. Alikulov, A. (2023). Organizational and methodological bases of accounting the costs of establishing vineyards.
8. Alikulov, A., & Razzoqo, A. (2023). PAXTA TOZALASH KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI TAHLIL QILISH. Academic research in educational sciences, 4(SamTSAU Conference 1), 74-83.
9. Eshmuradov, O. T., & Alikulov, A. I. (2022). Evaluation and accounting of material working cash in agroclasters as an object of accounting. Academic research in educational sciences, 3(Special Issue 1), 102-109.
10. Eshmuradov, U. T. The methodology of the primary account sales of agricultural products. In CONSTRUCȚII IDENTITARE-LITERATURA SI STUDII CULTURALE (pp. 113-118). Editura Vasiliana'98.
11. Эшмурадов, У. Т. (2022). СОТИШ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИ БЎЙИЧА ТРАНСФОРМАЦИЯСИ МАСАЛАЛАРИ. Архив научных исследований, 2(1).
12. Ulugbek, T. E., & Abdimumin, I. A. (2014). Improvement Accounting Of Sales Agricultural Products On Farm Enterprises. SEA-Practical Application of Science, (5), 649-654.
13. ESHMURADOV, U. T., & ALIKULOV, A. I. (2014). IMPROVEMENT ACCOUNTING OF SALES AGRICULTURAL PRODUCTS ON FARM ENTERPRISES. SEA: Practical Application of Science, 2(3).
14. Tashmuratovich, E. U. B. (2023). Agrokasterlar sotish jarayonlarida segmentar hisobotlarning ahamiyati. Научный Фокус, 1(7), 790-795.

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH**  
**VOLUME-7 ISSUE-4 (30- April)**

---

15. Olimjonovna, J. R. D., & Tashmuratovich, E. U. B. (2023). AGROKASTERLARDA KAPITAL SARFLAR HISOBINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI. MASTERS, 1(1), 112-118.
16. Eshmuradov, U. B. (2023). Sotish jarayonlari hisobini buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida takomillashtirish.
17. Tashmuratovich, E. U. (2023). ACCOUNTING AND AUDIT IMPROVEMENT OF READY SALE PRODUCTS IN AGROCLUSTER. The Journal of Economics, Finance and Innovation, 649-657.
18. Ortiqaliev, A. B. (2022). CHORVACHILIK YO 'NALISHIDAGI FERMER XO 'JALIKLARIDA SOTISH HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH. AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 1155-1159.
19. Olimjanovna, J. D., & Tashmuratovich, E. U. (2024). CONCEPT AND ACCOUNTING OF CAPITAL INVESTMENTS IN AGRICULTURAL CLUSTERS. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 7(3), 182-188.
20. Tashmuratovich, E. U. B., & Xaitovich, Y. S. (2024). G 'ALLACHILIK KLASTERLARIDA TRANSFERT BAHO BELGILASHNI USULLARI TAHLLILI. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 4(01), 133-141.
21. Ixtiyorovich, Q. L. A., Shavkat o'g'li, I. R., & Tashmuratovich, E. U. B. (2023). XARAJATLAR HISOBIDA QO 'LLANILADIGAN ATAMALAR MOHIYATI TAHLLILI VA ULARNI TIZIMLASHTIRISH. MASTERS, 1(1), 127-131.
22. Эшмурадов, У. Т. (2022). СОТИШ ВА РЕАЛИЗАЦИЯ ТУШУНЧАСИ, УЛАРНИНГ МАЗМУНИ ВА ТАЛҚИНИ. Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany), 861-867.
23. Baxodirovich, T. J., & Ismatovich, A. A. (2023). IMPROVING THE ACCOUNT OF FINANCIAL RESULTS ACCORDING TO INTERNATIONAL STANDARDS. MASTERS, 1(1), 138-143.
24. Rabbimovna, R. U., Baxtiyorovna, N. G., & Muxammadkulovna, Y. D. (2024). AGROKASTERLARDA TOVAR-MODDIY QIYMATLIKAR HISABI VA AUDITINI TAKOMILKASHTIRISH. WORLD OF SCIENCE, 7(3), 140-146.
25. Azimjonovich, R. N., Maxmudovich, U. B., & Abdusamatovich, J. J. (2024). MAHALLABAY ISHLASH TIZIMI ORQALI XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTRIRISH ASOSIDA ISHSIZLIKNI KAMAYTIRISH VA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISH. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 7(3), 207-213.
26. Azimjonovich, R. N., Abdusamatovich, J. J., & Maxmudovich, U. B. (2024). MAISHIY XIZMAT KO 'RSATISH SOHALARIGA BERILGAN IMTIYOZLAR JOZIBADORLIGINI NAZARIY ASOSLASH. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 7(3), 214-221.
27. O'G'Li, A. J. F., Abdusamatovich, J. J., Maxmudovich, U. B., & Baxtiyorovna, N. G. (2024). KAMBAG'ALLIKNI BARTARAF ETISHDA "MAHALLABAY" ISHLASH TIZIMI SAMARADORLIGI TAHLLILI. WORLD OF SCIENCE, 7(2), 114-125.

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH  
VOLUME-7 ISSUE-4 (30- April)

---

28. Ibodullayevich, O. R. F., & Turdibayevich, K. R. (2023). QISHLOQ XO'JALIGIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH. MASTERS, 1(1), 119-126.
29. Nazarova, M., & Kazakova, Z. (2023). Paxta-to 'qimachilik klasterlarida sotish baholarining tahlili.
30. Nazarova, M. S., & Kazakova, Z. S. (2024). Agrar sektorda ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishning nazariy masalalari.
31. Salamov, I., Nazarova, M., Kazakova, Z., Jonibekov, F., Kudratov, R., Ulmasova, O., & Xamdamova, N. (2024). Faol tadbirkorlar faoliyatida kambag 'al oilalarni iqtisodiy-ijtimoiy holatini yaxshilash imkoniyatlari.
32. Baxtiyorovna, U. O., Umarovna, X. M., Muxriddin o'g'li, I. K., & Negmatovich, K. U. (2024). IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA KICHIK BIZNESNING ROLINI OSHIRISH. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI, 4(3), 91-97.
33. Odiljon o'g'li, A. O., Abdusamatovich, J. J., Maxmudovich, U. B., & Baxtiyorovna, N. G. (2024). KAMBAG'ALLIKNI ANIQLASH VA QISQARTIRISH MAMLAKATIMIZ IJTIMOIY-IQTISODIY SIYOSATINING USTUVOR YO'NALISHI. SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 7(2), 237-246.
34. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2>